

KEKSALAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIYALAR**Usmonova Mohidil Mardon qizi**

Samarqand Davlat universiteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-kurs talabasi

e-mail: mohidiluralova4@gmail.comIlmiy rahbar: **Ibragimov Jahongir Toshniyozovich**

SAMDUKF Raqamli texnologiyalar va

iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Kekasalar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar va texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq qilish masalalari haqida so'z boradi. Shuningdek keksalik davrida uchraydigan ijtimoiy, psixologik va jismoniy muammolarni aniqlash, baholash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy chora tadbirlar va chet el tajribalari haqida atroflicha fikr yuritilgan .

Kalit so'zlar: Reabilitatsiya, psixososial qo'llab-quvvatlash, psixologik farovonlik, , «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga, keksalarga nisbatan yuksak hurmat.

KIRISH.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir inson qalbida insoniylik, mehr-muruvvat, bag'rikenglik kabi ijobiy hislatlar joy olgan. Xalqimizning ulug' qadriyatlaridan biri yoshi ulug' insonlarga, keksalarga hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularning ko'p yillik hayotiy va mehnat tajribalari asosidagi qadrlı maslahatlaridan bahramand bo'lish va duolarini olib yurishdir. Zero, xalqimizning "Keksasi bor uyning farishtasi bor", "Qarisi bor uyning –parisi bor", "Qarilikni donolik bezar" degan hikmatli naqlari bor. Bu bejiz emas, albatta. Ana shu olijanob qadriyat, fazilat bugun davlatimiz siyosatida

ham o'z ifodasini topganligidan barchamiz mamnunmiz. Qarish muammosi hozirgi vaqtda mutlaqo yangi ijtimoiy hodisadir. Ushbu muammoni hal qilish uchun keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish talab etiladi, ularning eng muhimshakllaridan biri keksalarni ijtimoiy moslashtirish va rehabilitatsiya qilishni amalga oshirishdir. Ijtimoiy ishning samaradorligiga erishish uchun ushbu guruh odamlarining hayot sifatini yaxshilaydigan ijtimoiy ishning turli usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak. Keksalar — hayot tajribasi boy, ammo yosh o'tgan sari jismoniy va ruhiy jihatdan ko'proq yordamga muhtoj bo'lgan jamiyat qatlamidir. Ijtimoiy ish fanida keksalar bilan ishlash alohida yo'nalish sifatida qaraladi. Ijtimoiy ishchi keksa insonlar bilan ishlashda o'zining kasbiy etikasi, sabri, empatiyasi va halolligini saqlashi zarur. Islom dini ham har qanday xizmatni sidqidildan, halol niyat bilan qilishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Keksalik davri odatda inson hayotining yakuniy bosqichi sifatida qaraladi, ammo zamonaviy psixologiyada bu davr shunchaki pasayish emas, balki shaxsiy o'sish va ijtimoiy integratsiya uchun yangi imkoniyatlar bosqichi sifatida baholanmoqda. Psixologik farovonlikning ijtimoiy determinantlari aynan shu bosqichda eng dolzarb masalalardan biridir. Psixolog Laura Carstensen tomonidan ishlab chiqilgan Socioemotional Selectivity Theory (1999) esa keksalarda vaqt hissiyotining o'zgarishi natijasida yaqin va mazmunli ijtimoiy aloqalarga e'tibor kuchayishini ta'kidlaydi. Ya'ni, keksalar asosan hissiy ahamiyatga ega bo'lgan munosabatlarni ustuvor deb hisoblaydi. Ijtimoiy faollik (masalan, klub faoliyati, jamiyat ishlarida ishtirok, ko'ngillilik) bu ehtiyojni qondiruvchi muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Germaniyada "Mehribonlik markazlari" (Pflegezentrum) mavjud bo'lib, tibbiy, psixologik vujudan xizmatlar bir joyda ko'rsatiladi. Bu markazlar ijtimoiy moslashuv, faol qarilik va yolg'izlikni oldini olishga xizmat qiladi.

Rossiya jamiyatini modernizatsiya qilish sharoitida keksa fuqarolarning ijtimoiy muammolarini hal qilish va yumshatishning eng muhim samarali mexanizmlaridan biri

ularning ijtimoiy xizmatlarini tashkil etishdir. Ijtimoiy xizmatlar -bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy va tibbiy xizmatlar, psixologik vama'rifiy xizmatlar, ijtimoiy-huquqiy xizmatlar va moddiy yordam ko'rsatish, shuningdek, og'ir ahvolda bo'lgan fuqarolarni ijtimoiy moslashtirish va reabilitatsiyac qilishni. Yaponiya va Janubiy Koreyada keksalar uchun robot-assistentlar, raqamli sog'liq monitoringi vaonlayn xizmatlar rivojlangan. Masalan, keksa insonning qon bosimi, yurak urishi va harakati doimiy nazoratda bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1990 yil 14 dekabrda rezolyutsiyasi bilan e'lon qilingan "1 oktabr - Xalqaro keksalar kuni"ni har yili mamlakatimizda munosib nishonlash maqsadida oktabr oyining birinchi haftasi "Keksalar haftaligi" etib belgilandi. Shuningdek, hujjat bilan haftalikni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha alohida chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Vazirlar mahkamasining yuqoridagi qarorida ushbu "Keksalar maslahati" guruhlarini to'g'risidagi namunaviy nizomning tasdiqlanishi keksalarning muammolarini manzilli o'rganish va bartaraf etish, keksa avlod vakillariinng boy hayotiy tajribasidan oilalar va mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda keng foydalanish, ularning yurtimizda kechayotgan jadal islohotlar jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. "Keksalar maslahati" guruhlarining eng faol a'zolari muntazam ravishda "Mehnat faxriysi", "Mo'tabar ayol" va "Mahalla iftixori" kabi ko'krak nishonlariga tavsiya etilishi esa xayrli amallarga kuch va qanot bag'ishlaydi. Mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy- muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2005-yil – «Sihat-salomatlik yili»da 2 mingga yaqin yolg'iz nuroniyni uy-joyi ta'mirdan chiqarildi, kam ta'minlangan oilalar va keksa fuqarolarga moddiy yordamlar ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yildagi «2007–2010-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni

yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, «Nuroniylar» jamg'armasi hisobidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, faxriylarning davolash maskanlariga, «Saxovat» va «Muruvvat» uylariga dori-darmon vositalari yetkazib berildi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda nuroniylar to'liq dispanser ko'rigidan o'tkazildi. Toshkent shahrida faxriylarimizga barcha qulayliklarga ega 150 o'rinli «Nuroniylar» shifoxonasi xizmat qilmoqda. Viloyat shifoxonalari qoshidagi kasalxonalarda jamg'armaning viloyat bo'limlari hamda mahalliy hokimliklarning amaliy yordami tufayli tashkil etilgan yolg'iz keksalar va. Keksalar – hayot yo'lini bosib o'tgan, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, ammo hozirda ko'proq g'amxo'rlik va e'tiborga muhtoj bo'lgan ijtimoiy qatlamdir. Ijtimoiy ish sohasi aynan shunday ehtiyojlarga javob beradigan tizim bo'lib, u keksalarga har tomonlama yordam ko'rsatishni maqsad qiladi. Shu o'rinda, ijtimoiy ishchining roli beqiyosdir — u nafaqat moddiy yordam ko'rsatadi, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham keksa insonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Islom dini ham keksalarga nisbatan yuksak hurmat, xizmat va sabr-matонатni targ'ib etadi. Qur'oni Karim va hadislar keksa insonlarga munosabatda bo'lishda rahm-shafqat, ehtirom va mehr-muruvvatni ustuvor qadriyat sifatida ko'rsatadi. Mazkur maqolada ijtimoiy ishchining keksalar bilan ishlashdagi asosiy vazifalari va bu faoliyatda diniy-axloqiy yondashuvlarning o'rni tahlil qilinadi.

Shaxsiy sirni saqlash (konfidensiallik), Adolat va tenglikka rioya qilish, Keksaning rozilgisiz unga kuchli ta'sir o'tkazmaslik, Hech qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik kabi tamoyillarga amal qilishi kerak. Bu qadriyatlar Qur'oni Karim va Hadislar asosida shakllangan odob-axloq me'yorlariga ham uyg'un keladi. Ijtimoiy ishchilar keksalarga quyidagi xizmatlarni taqdim etadi: Uyga borib xizmat ko'rsatish — jismoniy yordam, ovqat pishirish, dori-darmon olib berish; Sog'liqni saqlash bo'yicha yo'naltirish — poliklinika yoki shifoxonalarga yuborish; Psixologik maslahat — hayotdan rozi bo'lish, o'zini foydali his qilishga yordam berish; Ma'naviy-ma'rifiy

tadbirlar — Qur'on o'qish, diniy bayramlar nishonlashda ishtirok; Madaniy hordiq — teatr, kutubxona, sayohatlar va suhbatlar tashkil etish.

Keksalar bilan ishlash — ijtimoiy ish sohasining eng mas'uliyatli va nozik yo'nalishlaridan biridir. Ijtimoiy ishchining vazifasi faqat yordam ko'rsatish emas, balki insoniylik, e'tibor va mehr ko'rsatish orqali keksa insonlarning hayotini yengillashtirishdan iboratdir. Islom dini bu borada kuchli ma'naviy asos yaratadi: keksalarga hurmat, xizmat va duolar bilan yondashish buyuriladi. Qur'oni Karim va hadislar keksalarni ulug'lash, ularning ko'nglini ko'tarish, ularni yolg'iz qoldirmaslikni ta'kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Keksalar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar ularning hayot sifati va ijtimoiy faolligini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Keksalar yoshga yetgan insonlar ko'plab psixologik va ijtimoiy o'zgarishlarga duch keladilar: sog'liqning zaiflashuvi, yaqinlaridan ajralish, yolg'izlik hissi kuchayishi va ijtimoiy ajralish holatlari shular jumlasidandir. Bunday vaziyatlarda to'g'ri psixologik yordam ko'rsatish, empatiya asosida muloqot qilish, ularni jamiyat hayotiga jalb etish, motivatsion dasturlar orqali ijtimoiy moslashuvini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy psixologik texnologiyalar va metodlar – masalan, guruh terapiya, art-terapiya, musiqiy va muqobil davolash uslublari – keksalar salomatligi va ruhiy holatini yaxshilashda samarali natijalar bermoqda. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali keksalar uchun masofaviy maslahatlar, onlayn muloqotlar tashkil etish ham ular orasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Taklif sifatida Keksalar bilan ishlaydigan mutaxassislar (ijtimoiy ishchilar, psixologlar) uchun maxsus malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilishi va Keksalar uchun mo'ljallangan psixologik yordam markazlari va ijtimoiy klublar soni oshirilishi zarur. Shuningdek bu masalada chet el tajribasini o'rganish ham yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi - (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Soliyeva N.M., Xodjayev N.X. “Ijtimoiy ishning nazariy va amaliy asoslari.” – T.: Ijtimoiy fanlar akademiyasi nashriyoti, 2022.
3. “O‘zbekiston Respublikasining Aholini ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi” qonuni. – T.: Adliya vazirligi nashriyoti, 2021.
4. J.B.Jabborov, D.Xolnazarova, Sh.Kenjayevev – Keksalar bilan ijtimoiy ish, Darslik, Toshkent, 2025 yil.
5. “Психология зрелости и старения” nauchno-prakticheskiy jurnal. № 3 (15), osen Moskva ” Tsentr Gerontolog ”2001.